

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№5

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, may.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umiddjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

АДАПТИВНОЕ БИЗНЕС-ПЛАНИРОВАНИЕ КАК ИНСТРУМЕНТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	10
Шарипов Конгратбай Авезимбетович, Исматуллаев Темур Равшан угли	
STERJEN KO'NDALANG KESIM YUZASI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORNING QISQA TUTASHUV PAYTIDAGI MEKANIK ZO'RIQISHGA CHIDAMLILIGI	18
Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna	
ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ НА РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА.....	26
Мусаева Шоира Азимовна, Муйинжонов Хусейн Алишеревич	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	35
Габбарова Ильмира Володиевна	
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLOATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH.....	41
Amirov Shavkat Rahmatullayevich	
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	48
Усманова Азиза Баходировна	
PEREGONDAGI HARAkatNI BOSHqARISH TIZIMLARINI MIKROPROTSESSORLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TUZILMAVIY SXEMASINI ISHLAB CHIqISH.....	53
Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	62
Alimova Dilafro'z Tohir qizii	
HUDUDLAR KESIMIDA AHOLI O'SISHINING BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	68
Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi	
QUYOSH FOTOELEKTRIK PANELLARI SAMARADORLIGIGA ATROF-MUHIT OMILLARI VA CHANGLANISHNING TA'SIRI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR.....	67
Botirov Bozorbek, Iskandarova Charos, Avazov Jonibek, Sultonov Abror	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ..	74
Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich, Sharipova Lobar Umrbek qizi	
INTERPOLATSION TIKLASH ALGORITMLARINING OCR ANIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	82
Aliyev Nodirbek Hamidullo o'g'li	
IKORXONALARDA KORPORATIV BOSHqARUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA INSTITUTSIONAL OMILLARI.....	89
Muxtorova Shaxlo Farxodovna	
O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARINI EKONOMETRIK PROGNOZLASH.....	101
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
KPI-BASED PERFORMANCE MANAGEMENT AND ITS IMPACT ON EMPLOYEE PRODUCTIVITY	106
Sultanova Kamila Mukhtorali kizi	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	



MHXS STANDARTLARIGA O‘TISH: KORXONALAR UCHUN AMALIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	117
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TURMUSH FAROVONLIGINI BAHOLASHNING KO‘P O‘LCHOVLI USULLARI VA MEZONLARI	123
Turdikulova Moxira Maxmasharifovna	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY-IQTISODIY IMPERATIVLARI	127
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA RO‘Y BERISHI MUMKIN BO‘LGAN BAXTSIZ HODISALAR VA UNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI	132
Dehqonov Oyatillo Mansurbek o‘g‘li, Abduraxmanov Abdurashid Ataxanovich	
VTULKA DETALINI ISHLAB CHIQRISHDA SHTAMPLASH TEXNOLOGIK JARAYONINI ISHLAB CHIQISH...	143
Abdullayev Fatxulla, Xasanov Kamoliddin, Yolg‘ashova Madina, Jo‘rayev Muhiddin	
JAHON MOLIYAVIY TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	147
Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.	
KORXONALARDA “TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH” KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI	151
Mamasoliyev G‘ayratbek Maxamadyusupovich	
HUDUDIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDA MAHSULOT EKSPORTINI DIVERSIFIKATSIYALASH YO‘LLARI.....	156
Mamadjanova Tuyg‘unoy Axmadjanovna	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ASOSIDA YUQORI QO‘SHILGAN QIYMATLI MAHSULOTLAR ULUSHINI KENGAYTIRISH	161
Yusupova Feruza Yo‘ldoshevna	
AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MIKROLOYIHALARNING O‘RNI	166
Irgashev Anvar Farxodovich	
XALQARO KOMPANIYALARDA INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	173
Raxmankulov Sherzod Shokirovich	
ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА ДЕГРАДАЦИИ КОМПОНЕНТОВ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ МОДУЛЕЙ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ КЛИМАТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ: ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР	178
Дыскин Валерий Григорьевич, Курбанов Юнус Муртаза угли, Жубаназаров Ринат Шапагат Улы	
RIVOJLANGAN DAVLATLARDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI	184
O‘tbosarov Abrorbek Adxamjon o‘g‘li	
DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARI ICHKI AUDITORLARINING PROFESSIONAL AXLOQ QOIDALARINI ISHLAB CHIQRISH.....	189
Xamidova Zarifa Urol qizi	
AUDIT JARAYONIDA DALIL OLISH VA UNING MUAMMOLARI	196
Ro‘zmetov Mansur	
O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY TURIZMNI QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	200
Shaydulova Marjona Alisher qizi	
KORXONALARNING MOLIYAVIY HOLATINI IFODALOVCHI KO‘RSATKICHLAR VA ULARNING MOLIYAVIY TAHLILI AHAMIYATI.....	205
Rizoyev Farrux Hikmatilloevich	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK SANOAT ZONALARIDA IQTISODIY SALOHİYATNI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI.....	210
Turaboev Ibroxim Ismoil o‘g‘li	
ISSIQLIK TEXNIKASIDA IKKILAMCHI BUG‘DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	215
Komilova Nodira Abdirahmon qizi	



СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УСЛОВИЯХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ РЕФОРМ	225
Юсупов Зойиржон Ровшан угли, Жумаев Улуғбек Нодирбекович ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ УПРАВЛЕНИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ КОМПАНИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ ЛОГИСТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ	231
Тожалиев Шохрух Талип ўғли GAMES ARE A POWERFUL TOOL FOR IMPROVING LANGUAGE LEARNING	236
Kulakhmedova Gulnora Abdurahimovna O'ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINING INNOVATSION XIZMATLARI ORQALI KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISH	241
Azlarova Aziza Axrorovna AVTOMOBIL SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINI BOSHQARISH VA RISKLARNI KAMAYTIRISH MEKANIZMLARI	248
Marufxanov Davron Hasanovich O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING YANGI IMKONIYATLARI: 2026-YIL ISLOHOTLARI VA ISTIQBOLLARI	255
Isakjanova Saboxat Muhamedovna MINTAQA IQTISODIYOTI VA SANOATNING RIVOJLANISHI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNING NAZARIY YONDASHUVLARI	263
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISHNI JORIY ETISHDA ASOSIY MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH YO'LLARI	268
Anvar Deberdiyev RAQAMLI XIZMATLARNING O'ZBEKISTON TASHQI SAVDO BALANSIDAGI O'RNI	272
Latipova Shaxnoza Maxmudovna, Normurodova Zuhra Orzimurod qizi TURISTIK KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI	278
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna IQTISODIY TIZIMDA TADBIRKORLIK VA TADBIRKORLIK QOBILiyATIGA YANGICHA YONDASHUV	283
Tadjiev Bexzod Umidjanovich OTMNI MOLIYAVIY TA'MINLASHNING INNOVATSION MOLIYAVIY MODELARI	290
Tuxliyev Bozor Karimovich TOG'-KON SANOATI KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIMLARNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	293
Abirova Nargizabonu TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	298
Ro'ziyeva Maftuna Yusufovna OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA IQTISODIY KO'RSATKICHLAR DINAMIKASINING EMPIRIK TAHLILI	303
Sharipova Shahlo Istamovna METROLOGIYANING ILMIY-METODIK ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	308
Maxmudov Dostonbek Soyibjon o'g'li SANOAT KORXONALARIGA KIRITILGAN INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	312
Mirzakulova Risolat Musurmankulovna O'ZBEKISTONDA RAQAMLI DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	317
Ibragimova Saodat, Mirhamidova Dilorom, Shagaipova Gulchehra	



OLIY TA'LIM BITIRUVCHILARI SONINING JISMONIY SHAXSLAR DAROMAD SOLIG'IGA TA'SIRI VA INSON KAPITALI ORQALI IJTIMOYIY XARAJATLARNI BOSHQARISH.....	323
Primova Nigora Ikrom qizi	
GLOBAL BIZNESDA INNOVATSIYALARNING ROLI: YANGI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHGA STRATEGIK YONDASHUVLAR	331
Raxmankulov Sherzod Shokirovich	
ELEKTRON TIJORAT BILAN SHUG'ULLANUVCHI KORXONALARDA MIJOZLAR QONIQLASH DARAJASI..	337
Aripov Ulug'bek Bahodirovich	
KICHIK BIZNESDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	341
Xakimov Akbar Anvarovich	
FOTOELEKTRIK TIZIM SAMARADORLIGIGA HARORAT, SOYALANISH VA DEGRADATSIYA OMILLARINING TA'SIRI.....	344
Majidova Maxliyo A'zam qizi	
ISSIQLIK TEXNIKASIDA IKKILAMCHI BUG'DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	354
Komilova Nodira Abdirahmon qizi	
STUDY OF THE INFLUENCE OF MEMBRANE REACTOR ON METHANE CONVERSION WITH WATER VAPOR AND CARBON OXIDE (IV).....	362
Umida Shabarova, Sugdiyana Abdurasulova	
ESG MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN: EVALUATION PRACTICES, KEY DETERMINANTS, AND STRATEGIC PRIORITIES.....	367
Sanemkhan Abdullaeva	
UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STRATEGIK MENEJMENTNING O'RNI VA AHAMIYATI	375
Boymirzayev Doniyorbek Anvarjon o'g'li	
PEDAGOGIK MAHORATNI OSHIRISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ORQALI TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRADIGAN PLATFORMA ISHLAB CHIQLASH	379
Salomov Shokirjon, Boboyev Shavkat, Normamatov Xayriddin	
ПОВЫШЕНИЕ ОГНЕСТОЙКОСТИ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ ВТОРИЧНОГО ПОЛИЭТИЛЕНА.....	386
Назаров Феруз, Назаров Фарход, Ахмедова Фазилат, Элмуродов Элгез, Янгибоев Асадбек	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION JARAYONLARNI JADALLASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	391
Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich, Rasulov Akmal Xurshid o'g'li	
EKSPORT VA IMPORTDA TRANSPORT LOGISTIKASINING AHAMIYATI.....	397
Yodgorova Shaxnoza Xayridinovna, Bazarova Sevinch Salim qizi	
MADANIY MEROS OBYEKTLARINING TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI STRATEGIK AHAMIYATI	403
Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna	
EKSPORT VA IMPORTDA TRANSPORT LOGISTIKASINING AHAMIYATI.....	407
Yodgorova Shaxnoza Xayridinovna, Bazarova Sevinch Salim qizi	
XORAZM VILOYATINING IQTISODIY SALOHİYATI VA TRANSPORT INFRATUZILMASINING TARKIBI HAMDA JORIY HOLATI	411
Karimova Shaxnoza O'ktamovna	
TURISTIK KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	418
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI INFRATUZILMALARINI RIVOJLANTIRISH	423
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
AKTIVLAR QADRSIZLANISHI XARAJATLARINING MOLIYAVIY VA SOLIQ HISOBOTLARIGA TA'SIRI.....	427
Jarimbetov Ajiniyaz Kurbanbaevich	



MUHANDISLIK GEOMETRIYASI VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANLARINI O'QITISHDA MULTIMEDIA VA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM NATIJALARIGA TA'SIRI: AUDIO VA VIDEOTEKNOLOGIYALAR IXTISOSLIGI MISOLIDA EMPIRIK TADQIQOT.....	430
Utkirova Mamura Faxriddin qizi	
HUDUDIY TADBIRKORLIK TIZIMIDA INVESTITSION RESURSLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INSTITUTSIONAL VA EKONOMETRIK YONDASHUVLARI	436
Isakov Axmadali Esanbayevich	
MINTAQAVIY OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISHIGA INVESTITSION RESURSLARNING TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH	444
Abdunabiyev Sirojiddin G'anijon o'g'li	
XABAR ALMASHISHGA ASOSLANGAN MARKETINGDA ISTE'MOLCHILARNING SHAXSIY HAYOTINI KUTILMALARI	452
Raxmatova Sitora Shuxratjon qizi	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARNI OPTIMALLASHTIRISH VA SOG'LOM RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISH: XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SEKTORINI INSTITUTSIONAL ISLOH QILISHNING QIYOSIY TAHLILI	461
Sharapov Umidjon Shavkatovich	
ZAMONAVIY SERVIS KOMPANIYALAR TANNARXINI ANIQLASHNING DOLZARB YO'NALISHLARI	471
Berdiyeva Dilfuza Axatovna	
NAVOIY VILOYATINING TURISTIK OBYEKTALARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI REKREATSION TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI TAHLILI	477
Turayev Abduvoxid Kuldashevich	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	483
Alimova Dilafro'z Tohir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TADBIRKORLIKNI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI	488
Suvonov Ibrohim Izbosarovich	
QORAKO'L TERI JINGALAKLARINING TAKRORLANMAS KO'RINISHI VA XUSUSIYATLARI	492
Hakimova Sh.Q., Azimov J.Sh., Farmonov F.F.	
YOSH TADBIRKORLARNING STARTAP LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI	497
Koriev Orif Azizovich	
HUDUDLARDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI YO'NALISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH	502
Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich, Karimov Chuxmor Abdirashidovich	
SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIYAVIY HOLATI VA MOLIYAVIY NATIJALARI TAHLILI	507
Alimov Baxodir Batirovich	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISHNING IQTISODIY TAHLILI	513
Turg'unov Nodirbek Muminjanovich	
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINING ROLI	516
Xodjimatom Maksudbek Ubaydullayevich	
MINTAQA TURIZM INDUSTRIYASINING IQTISODIY RIVOJLANISHI VA BOSHQARUV FAOLIYATLARI TAHLILI	520
Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich, Ruziqulov Aziz Tuxtayevich	
TIJORAT BANKLARIDA FINTECH TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH ORQALI MOLIYAVIY INKLYUZIVLIKNI TA'MINLASH: NAZARIY YONDASHUV VA ISTIQBOLLAR	526
Nazarova Shohista Tolmas qizi	
METALLARGA BOSIM OSTIDA ISHLOV BERISH JARAYONLARINI RAQAMLI MODELLASHTIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI	531
Xasanov Kamoliddin Akmal o'g'li, Abdullayev Fatxulla Sagdullayevich, Diyorov Salohiddin Farhod o'g'li, Jalolov Jafar Jamol o'g'li	



XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL MABLAG'LARI HISOBINI MHHS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH: USLUBIY VA AMALIY YONDASHUVLAR	537
Umurzakov Dilshodbek Xakimovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI YASHIRIN IQTISODIYOTNI AMALGA OSHIRISHGA UNDOVCHI OMILLAR.....	543
Bobojonov Azimjon Akmal o'g'li	
MINTAQANING INVESTITSION SALOHİYATINI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	548
Maxmudov Jasurbek Ergashevich	
BUXORO TARIXIY MARKAZIDAGI MUZEY OBYEKTINING SIG'IM TAHLILI: FAYZULLA XO'JAYEV UY-MUZEYI TAJRIBASIDA.....	553
Odilova Muattar Akram qizi, Qilichov Muhriddin Husniddin o'g'li	
MAMLAKATIMIZDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING USTUVORLIKLARI.....	560
Turdiyeva Muqaddas Umarovna	
МОДЕЛЬ ЦИФРОВОГО ОБЪЕКТА ДЛЯ АНАЛИЗА КОМПЛЕКСНЫХ ЦИФРОВЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ОБЪЕКТОВ.....	565
Гулямов Шухрат, Шамсутдинова Винера, Караханова Алсу, Зайниддинова Зебинисо	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING MOLIYAVIY MEKANIZMLARI	571
Yuldoshov Otabek Jovli o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING XALQARO KAPITAL BOZORLARIGA INTEGRATSIYASI VA INVESTITSION SALOHİYATINI OSHIRISH MEKANIZMLARI.....	576
Ortiqov Sidiqjon Xolmurodovich	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSH SALOHİYATNI SHAKLLANTIRISH VA RAQOBAT USTUNLIKLARINI TA'MINLASH MEKANIZMLARI	583
Asenbaeva Aydaygul, Toshqulova Aziza	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING O'ZBEKISTON IQTISODIY TARAQQIYOTIGA TA'SIRI.....	587
Halimov Humoyunbek Tohirjon o'g'li, Rustamov Davron Rustamovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING O'ZBEKISTON IQTISODIY TARAQQIYOTIGA TA'SIRI.....	591
Halimov Humoyunbek Tohirjon o'g'li, Rustamov Davron Rustamovich	
SCENARIO-BASED ECONOMETRIC EVALUATION OF REAL INVESTMENT EFFICIENCY IN SMALL BUSINESS ACTIVITIES.....	601
Otajanov Umid Abdullayevich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIY O'SISHNI RAG'BATLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	611
Iminoxunov Abdukoxor Abdivaitovich	



O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIY O'SISHNI RAG'BATLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARI

Iminoxunov Abdukoxor Abdivaitovich

Texnologiya, menejment va kommunikatsiya instituti

Iqtisodiyot, menejment va buxgalteriya hisobi kafedrası professori v.b., i.f.f.d.

E-mail: iminohunov@tmci.uz

ORCID: 0000-0003-0182-4303



Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning institutsional va iqtisodiy mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi strategik hujjatlar, milliy yashil taksonomiya, ESG standartlari, MRV tizimi, yashil moliyalashtirish va iqtisodiy rag'batlantirish vositalarining o'zaro bog'liqligini ochib berishdan iborat. Maqolada yashil kreditlar, yashil obligatsiyalar, grantlar, subsidiyalar, yashil tariflar, uglerod bozori, "yashil tadbirkor" maqomi va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining yashil o'sishga ta'siri yoritiladi. Ilmiy yangilik O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning institutsional-iqtisodiy modelini asoslashdan iborat.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiy o'sish; institutsional mexanizm; iqtisodiy rag'batlantirish; yashil moliyalashtirish; ESG standartlari; milliy yashil taksonomiya; MRV tizimi; uglerod bozori.

Аннотация. В данной статье анализируются институциональные и экономические механизмы стимулирования зелёного экономического роста в Республике Узбекистан. Цель исследования заключается в раскрытии взаимосвязи стратегических документов, национальной зелёной таксономии, стандартов ESG, системы MRV, зелёного финансирования и инструментов экономического стимулирования. В статье рассматривается влияние зелёных кредитов, зелёных облигаций, грантов, субсидий, зелёных тарифов, углеродного рынка, статуса «зелёного предпринимателя» и механизмов государственно-частного партнёрства на зелёный рост. Научная новизна заключается в обосновании институционально-экономической модели стимулирования зелёного экономического роста в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: зелёный экономический рост; институциональный механизм; экономическое стимулирование; зелёное финансирование; стандарты ESG; национальная зелёная таксономия; система MRV; углеродный рынок.

Abstract. This article analyzes the institutional and economic mechanisms for promoting green economic growth in the Republic of Uzbekistan. The aim of the study is to reveal the interconnection between strategic documents, the national green taxonomy, ESG standards, the MRV system, green financing, and economic incentive instruments. The article examines the impact of green loans, green bonds, grants, subsidies, green tariffs, the carbon market, the status of a "green entrepreneur," and public-private partnership mechanisms on green growth. The scientific novelty lies in substantiating an institutional-economic model for promoting green economic growth in the context of Uzbekistan.

Keywords: green economic growth; institutional mechanism; economic incentives; green financing; ESG standards; national green taxonomy; MRV system; carbon market.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida yashil iqtisodiyotga o'tish masalasi faqat ekologik xavfsizlikni ta'minlash bilan cheklanmaydi. U iqtisodiy o'sish sifatini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligini kuchaytirish, investitsion jarayonlarni ekologik mezonlar bilan uyg'unlashtirish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlash bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli, yashil iqtisodiyotga o'tish davlat siyosatida strategik maqsad sifatida belgilangani bilan birga, uni amalga oshirish uchun aniq institutsional va iqtisodiy mexanizmlar talab etiladi.

Yashil iqtisodiy o'sish deganda iqtisodiy rivojlanishni ekologik xavfsizlik, resurs tejamkorlik, energiya samaradorligi, past uglerodli ishlab chiqarish va ijtimoiy farovonlik bilan uyg'unlashtiruvchi o'sish modeli tushuniladi. Bunday o'sish faqat ishlab chiqarish hajmi, investitsiya yoki eksport ko'rsatkichlarining ortishi bilan emas, balki ushbu o'sishning qanday resurslar hisobiga shakllanishi va uzoq muddatli barqarorlikni qanchalik

ta'minlashi bilan baholanadi. Mazkur yondashuv xalqaro metodologik manbalarda ham, O'zbekiston ilmiy adabiyotlarida ham iqtisodiy o'sishni resurs samaradorligi va ekologik barqarorlik bilan bog'lash zarurati orqali izohlanadi (UNEP, 2011; OECD, 2011; World Bank, 2012; Vaxabov & Xajibakiev, 2024; Turobova & Kadirova, 2025).

O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o'tishning strategik asoslari so'nggi yillarda izchil shakllanmoqda. 2019–2030-yillarda “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasi, 2030-yilgacha “yashil” iqtisodiyotga o'tish va “yashil” o'sishni ta'minlash dasturi, milliy “yashil” iqtisodiyot taksonomiyasi, milliy shaffoflik tizimi va 2025-yilga mo'ljallangan davlat dasturi ushbu yo'nalishning asosiy institutsional-huquqiy bazasini tashkil etadi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-son qarori, 2019; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-436-son qarori, 2022; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 561-son qarori, 2023; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 800-son qarori, 2024; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-16-son Farmoni, 2025). Mazkur hujjatlarda energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, issiqxona gazlari ajratmalarini kamaytirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, ESG standartlarini joriy etish va yashil moliyalashtirishni kengaytirish kabi vazifalar belgilangan.

Shu bilan birga, strategik maqsadlarning mavjudligi yashil iqtisodiy o'sishni avtomatik ta'minlamaydi. Amaliy natija iqtisodiy subyektlarning yashil texnologiyalarni joriy etishga, energiya va suv resurslarini tejashga, emissiyalarni kamaytirishga, ESG hisobotlarini yuritishga va ekologik loyihalarga investitsiya kiritishga qanchalik manfaatdor ekanligiga bog'liqdir. Buning uchun yashil kreditlar, yashil obligatsiyalar, grantlar, subsidiyalar, yashil tariflar, uglerod bozori, “yashil tadbirkor” maqomi, davlat-xususiy sheriklik va investitsiya loyihalarida “yashil komponent” talabini joriy etish muhim ahamiyatga ega (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-436-son qarori, 2022; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-16-son Farmoni, 2025; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 561-son qarori, 2023).

Maqolaning dolzarbligi shundaki, O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha strategik va normativ-huquqiy asoslar shakllangan bo'lsa-da, ularning real iqtisodiy o'sishga ta'siri institutsional va iqtisodiy mexanizmlarning o'zaro uyg'un ishlashiga bog'liqdir. Avvalgi tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyot rivojlanishining barqaror iqtisodiy o'sishga ta'siri makroiqtisodiy va tarmoq ko'rsatkichlari asosida tahlil qilingan bo'lsa, mazkur maqolada ushbu jarayonning institutsional, moliyaviy va rag'batlantiruvchi mexanizmlari alohida o'rganiladi (Iminoxunov, 2026). Milliy yashil taksonomiya loyihalarni tasniflaydi, ESG standartlari korporativ shaffoflikni kuchaytiradi, MRV va milliy shaffoflik tizimi natijalarni o'lchash va verifikatsiya qilish imkonini yaratadi, yashil moliyalashtirish esa ushbu institutsional asoslarni real investitsiya qarorlariga aylantiradi.

Maqolaning maqsadi O'zbekistonda yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning institutsional va iqtisodiy mexanizmlarini tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsad doirasida strategik hujjatlar, boshqaruv mexanizmlari, milliy yashil taksonomiya, ESG standartlari, MRV tizimi, yashil moliyalashtirish va iqtisodiy rag'batlantirish vositalari o'zaro bog'liq tizim sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi mazkur mexanizmlarni alohida chora-tadbirlar yig'indisi sifatida emas, balki O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi yaxlit institutsional-iqtisodiy model sifatida asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotning asosiy axborot bazasini O'zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o'tish va “yashil” iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga doir strategik, normativ-huquqiy va dasturiy hujjatlar tashkil etdi. Jumladan, PQ-4477-son qaror yashil iqtisodiyot siyosatining dastlabki strategik asoslarini aniqlash uchun, PQ-436-son qaror esa 2030-yilgacha bo'lgan maqsadli ko'rsatkichlar, vakolatli organlar, MRV tizimi, yashil sertifikatlar, uglerod bozori va ESG tamoyillarini tahlil qilish uchun foydalanildi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-son qarori, 2019; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-436-son qarori, 2022).

Normativ-huquqiy tahlil doirasida VMQ-514-son qaror boshqaruv va idoralararo muvofiqlashtirish mexanizmlarini, VMQ-561-son qaror milliy yashil taksonomiya va yashil loyihalarni tasniflash mezonlarini, VMQ-800-son qaror esa milliy shaffoflik tizimi, monitoring, hisobot berish va verifikatsiya jarayonlarini o'rganish uchun asos bo'ldi (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 514-son qarori, 2023; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 561-son qarori, 2023; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 800-son qarori, 2024).

Iqtisodiy rag'batlantirish vositalarini tahlil qilishda yashil moliyalashtirish, xalqaro qarz va grant mablag'lari, yashil tariflar, “yashil tadbirkor” maqomi, investitsiya loyihalarida “yashil komponent” talabini joriy etish, davlat-xususiy sheriklik va uglerod bozoriga oid mexanizmlar o'rganildi. Bunda VMQ-374-son qaror tashqi moliyaviy resurslarni jalb qilish mexanizmini, PF-16-son Farmon esa yashil moliyalashtirish, ESG hisobotlari, yashil tariflar va yashil tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash choralari tahlil qilishda asosiy manba sifatida foydalanildi.



(O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 374-son qarori, 2022; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-16-son Farmoni, 2025).

Tizimli yondashuv yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish mexanizmlarining o'zaro bog'liqligini ochib berish uchun qo'llanildi. Ushbu yondashuvga ko'ra, strategik hujjatlar umumiy yo'nalishni belgilaydi, institutsional mexanizmlar boshqaruv va muvofiqlashtirishni ta'minlaydi, milliy yashil taksonomiya loyihalarni tasniflaydi, ESG standartlari korporativ shaffoflikni kuchaytiradi, MRV tizimi natijalarni o'lchash imkonini beradi, yashil moliyalashtirish esa ekologik samarali loyihalarga kapital oqimini yo'naltiradi.

Tadqiqotning metodologik cheklovi shundan iboratki, maqolada yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish mexanizmlarining makroiqtisodiy natijalarga aniq miqdoriy ta'siri ekonometrik model orqali baholanmaydi. Buning asosiy sababi yashil moliyalashtirish, ESG hisobotlari, uglerod birliklari, emissiyalar qisqarishi va tarmoqlar kesimidagi ekologik samaradorlik bo'yicha uzoq muddatli, ochiq va solishtiriladigan statistik qatorlarning hali yetarli darajada shakllanmaganligidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning institutsional va iqtisodiy mexanizmlarini tahlil qilish uchun institutsional tahlil, normativ-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv va qiyosiy-tarkibiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi yashil iqtisodiy o'sishni alohida ekologik natijalar orqali emas, balki strategik hujjatlar, davlat boshqaruvi institutlari, moliyaviy vositalar, korporativ shaffoflik standartlari, monitoring tizimi va investitsion rag'batlarning o'zaro bog'langan tizimi sifatida o'rganishga asoslandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish mexanizmlari bosqichma-bosqich shakllanayotgan yaxlit institutsional-iqtisodiy tizim sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu tizim strategik hujjatlar, davlat boshqaruvi va muvofiqlashtirish mexanizmlari, milliy yashil taksonomiya, ESG va shaffoflik standartlari, MRV tizimi, yashil moliyalashtirish, iqtisodiy rag'batlantirish vositalari hamda yashil loyihalarni baholash tartiblaridan iboratdir. Har bir element alohida vazifani bajaradi, biroq ularning samaradorligi yagona tizim sifatida ishlashiga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiy o'sishning strategik asosi 2019–2030-yillar davrida "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi orqali belgilangan. Unda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish, energiya resurslari iste'molini diversifikatsiya qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish hamda "yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-son qarori, 2019). Keyingi bosqichda PQ-436-son qaror ushbu yondashuvni maqsadli ko'rsatkichlar, vakolatli organlar, MRV tizimi, yashil sertifikatlar, uglerod bozori va ESG tamoyillari bilan mustahkamladi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-436-son qarori, 2022).

Yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning institutsional asosini strategik hujjatlar bilan birga ularni amalga oshirishga xizmat qiluvchi boshqaruv mexanizmlari tashkil etadi. VMQ-514-son qarorda davlat organlari va davlat ulushi mavjud xo'jalik birlashmalarida "yashil" iqtisodiyot masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha mas'ul rahbar va bo'linmalar belgilanishi nazarda tutilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 514-son qarori, 2023). Bu holat yashil iqtisodiyot siyosatining umumiy deklaratsiya darajasidan aniq tashkiliy javobgarlik darajasiga o'tayotganini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval.

O'zbekistonda yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning institutsional mexanizmlari

Institutsional mexanizm	Asosiy hujjat yoki institut	Vazifasi	Yashil o'sishga ta'siri	Tahliliy baho
Strategik asos	PQ-4477-son qaror	"Yashil" iqtisodiyotga o'tishning uzoq muddatli yo'nalishlarini belgilash	Yashil siyosatni milliy rivojlanish strategiyasiga bog'laydi	Dastlabki konseptual asos vazifasini bajaradi
Maqsadli dastur	PQ-436-son qaror	2030-yilgacha yashil o'sish ko'rsatkichlari va harakatlar rejasini belgilash	Maqsadli indikatorlar orqali siyosatni amaliy bosqichga o'tkazadi	Tizimli rejalashtirishni kuchaytiradi

Boshqaruv tizimi	VMQ-514-son qaror	Davlat organlari va xo'jalik birlashmalarida mas'ul rahbar va bo'linmalarni belgilash	Yashil siyosat uchun tashkiliy javobgarlik yaratadi	Institutsional muvofiqlashtirishni mustahkamlaydi
Yashil taksonomiya	VMQ-561-son qaror	Yashil loyiha va faoliyat turlarini tasniflash mezonlarini belgilash	Moliyalashtirishni haqiqiy yashil loyihalarga yo'naltiradi	Greenwashing xavfini kamaytiradi
Milliy shaffoflik tizimi	VMQ-800-son qaror	Monitoring, hisobot berish va verifikatsiya tizimini joriy etish	Natijalarni o'lchash va tekshirish imkonini beradi	Investorlar ishonchi va ma'lumotlar sifatini oshiradi
Amaliy davlat dasturi	PF-16-son Farmon	Yashil moliyalashtirish, ESG, yashil tariflar va yashil tadbirkorlikni rivojlantirish	Strategiyani amaliy chora-tadbirlarga aylantiradi	Iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini kengaytiradi
Tashqi moliyalashtirish mexanizmi	VMQ-374-son qaror	Xalqaro qarz va moliyaviy resurslarni yashil iqtisodiyot dasturiga yo'naltirish	Yashil loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatini kengaytiradi	Tashqi moliyaviy resurslarni jalb qilish imkonini beradi

1-jadvaldan ko'rinadiki, O'zbekistonda yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish mexanizmlari strategik rejalashtirish, davlat boshqaruvi, moliyalashtirish, tasniflash, monitoring va hisobot tizimlari orqali shakllanmoqda. PQ-4477 strategik yo'nalishni belgilagan bo'lsa, PQ-436 ushbu yo'nalishni aniq maqsadli ko'rsatkichlar bilan to'ldiradi. VMQ-514, boshqaruv mas'uliyatini davlat organlari va xo'jalik birlashmalari darajasiga olib chiqadi. VMQ-561, yashil loyihalarni tasniflash mezonlarini belgilaydi, VMQ-800 esa monitoring, hisobot berish va verifikatsiya orqali natijalarning ishonchlilikini ta'minlashga xizmat qiladi. PF-16-son Farmon institutsional asoslarni amaliy iqtisodiy vositalar bilan bog'laydi, VMQ-374-son qaror esa tashqi moliyaviy resurslarni yashil iqtisodiyot dasturlariga yo'naltirish imkoniyatini ko'rsatadi.

Yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda milliy "yashil" iqtisodiyot taksonomiyasining o'rni alohida ahamiyatga ega. Taksonomiya qaysi faoliyat turi yoki investitsiya loyihasi "yashil" mezonlarga mos kelishini aniqlash uchun zarur bo'lgan tasniflash tizimini yaratadi. VMQ-561-son qarorda yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar va boshqa moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarni milliy yashil taksonomiya orqali tasniflash nazarda tutilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 561-son qarori, 2023). Bu yondashuv moliyaviy resurslarning haqiqatan ham ekologik samaradorlikka ega loyihalarga yo'naltirilishiga xizmat qiladi.

Milliy shaffoflik tizimi va MRV mexanizmlari yashil iqtisodiy o'sish natijalarini o'lchash, tekshirish va ochiq hisobot shaklida taqdim etish uchun zarur institutsional asosni yaratadi. VMQ-800-son qarorda monitoring, hisobot berish va verifikatsiya tizimini ishlab chiqish, emissiya savdosi va uglerod qiymatini belgilash kabi mexanizmlarni qo'llab-quvvatlash belgilangan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 800-son qarori, 2024). Demak, MRV tizimi nafaqat ekologik hisob, balki investorlar ishonchi, moliyaviy qarorlar va uglerod bozori uchun ham zarur axborot infratuzilmasi vazifasini bajaradi.

Yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda iqtisodiy vositalar alohida o'rin tutadi. Ular qatoriga yashil kreditlar, yashil obligatsiyalar, grantlar, subsidiyalar, yashil tariflar, uglerod bozori, "yashil tadbirkor" maqomi, davlat-xususiy sheriklik hamda investitsiya loyihalarida "yashil komponent" talabini joriy etish kiradi. Ushbu vositalarning umumiy vazifasi korxonalar, banklar, investorlar, tadbirkorlik subyektlari va aholi uchun ekologik jihatdan mas'uliyatli faoliyatni iqtisodiy jihatdan manfaatli qilishdan iboratdir (2-jadval).

2-jadval.

Yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning asosiy iqtisodiy vositalari

Iqtisodiy vosita	Qo'llanish sohasi	Rag'batlantirish mexanizmi	Kutilayotgan iqtisodiy natija	Institutsional shart
Yashil kreditlar	Energetika, sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish	Imtiyozli moliyalashtirish orqali yashil texnologiyalar xarajatini kamaytiradi	Resurs tejamkor ishlab chiqarish kengayadi	Taksonomiya va loyiha baholash mezonlari
Yashil obligatsiyalar	Yashil infratuzilma va uzoq muddatli loyihalar	Kapital bozorida maqsadli mablag' jalb qiladi	Yashil investitsiya hajmi oshadi	Emitent shaffofligi va tashqi sertifikatlash
Grantlar va subsidiyalar	Qayta tiklanuvchi energiya, suv tejash, chiqindilarni qayta ishlash	Dastlabki investitsion yukni kamaytiradi	Yashil loyihalarni boshlash osonlashadi	Aniq mezonlar va monitoring



Yashil tariflar	Quyosh, shamol, biogaz, chiqindilar utilitatsiyasi	Ortiqcha ishlab chiqarilgan elektr energiyasini imtiyozli narxda sotish imkonini yaratadi	Qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish ommalashadi	Hisobga olish va tarmoqqa ulash mexanizmlari
Uglerod bozori	Sanoat, energetika, iqlim loyihalari	Emissiya qisqarishini iqtisodiy qiymatga aylantiradi	Kam uglerodli modernizatsiya rag'batlanadi	MRV va verifikatsiya tizimi
"Yashil tadbirkor" maqomi	Kichik va o'rta biznes, sanoat, qurilish	Reyting, platforma ustuvorligi, eksportga chiqish va tekshiruv yukini kamaytirish orqali rag'bat yaratadi	Yashil biznes modeli rivojlanadi	Baholash mezonlari va ochiq platforma
Davlat-xususiy sheriklik	Yashil infratuzilma, energetika, ekologik transport	Davlat va xususiy kapitalni birlashtiradi	Yirik yashil loyihalar ko'lamini kengayadi	Yashil komponent va BRMga moslik bahosi
"Yashil komponent" talabi	Investitsiya dasturlari, tarmoq va hududiy loyihalar	Loyihalarni rejalashtirish bosqichidayoq yashil mezonlarni majburiy kiritadi	Investitsiyalar tarkibi ekologik samarali yo'nalishlarga buriladi	Loyiha baholash tartibi va monitoring tizimi


2-jadvaldan ko'rinadiki, yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish vositalari vazifasi bo'yicha farqlansa-da, ular bir-birini to'ldiruvchi xususiyatga ega. Yashil kreditlar va grantlar korxonalarining dastlabki modernizatsiya xarajatlarini kamaytiradi. Yashil obligatsiyalar uzoq muddatli infratuzilmaviy loyihalar uchun kapital jalb qilish imkonini beradi. Yashil tariflar qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarishni iqtisodiy jihatdan manfaatli qiladi. Uglerod bozori emissiyalarni kamaytirish natijasini iqtisodiy qiymatga aylantiradi. "Yashil tadbirkor" maqomi esa tadbirkorlik subyektlari uchun ma'muriy, reputatsiya va bozor afzalliklarini yaratadi.

PF-16-son Farmonda 2025-yil 1-apreldan boshlab chiqindilar utilitatsiyasi, shamol va quyosh manbalaridan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi uchun "yashil tarif"lar joriy etilishi belgilangan. Ushbu mexanizm qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarishni aholi va tadbirkorlar uchun daromad manbaiga aylantirish orqali yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-16-son Farmoni, 2025).

Yashil moliyalashtirishni rivojlantirish ham iqtisodiy rag'batlantirish tizimining muhim tarkibiy qismidir. PF-16-son Farmonda yashil va kam uglerodli rivojlanish loyihalarini qo'llab-quvvatlash uchun xalqaro kredit va grant mablag'larini jalb etish belgilangan. VMQ-374-son qarorda esa Fransiya taraqqiyot agentligi ishtirokida "Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish dasturi" doirasida 150 million yevro miqdorida qarz jalb qilingani ko'rsatilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-16-son Farmoni, 2025; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 374-son qarori, 2022).

Yashil iqtisodiy o'sish mexanizmlarida investitsiya loyihalarining "yashil komponent"ga ega bo'lishi ham muhim ahamiyatga ega. PF-16-son Farmonga muvofiq, 2025-yildan boshlab shakllantiriladigan yangi loyihalarning 15 foizida, 2027-yildan 30 foizida, 2030-yildan esa 55 foizida "yashil komponentlar" bo'lishi lozim (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-16-son Farmoni, 2025). Bu talab yashil iqtisodiyotni alohida ekologik loyiha sifatida emas, balki umumiy investitsiya siyosatining majburiy tarkibiy qismi sifatida shakllantiradi (1-rasm).

1-rasm. Yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning institutsional-iqtisodiy modeli



Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-son, PQ-436-son qarorlari, PF-16-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 514-son, 561-son va 800-son qarorlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

1-rasm. Yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning institutsional-iqtisodiy modeli

1-rasmda ifodalangan model yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish jarayoni besh bosqichli institutsional-iqtisodiy tizim sifatida shakllanishini ko'rsatadi. Birinchi bosqichda strategik hujjatlar umumiy yo'nalish va maqsadlarni belgilaydi. Ikkinchi bosqichda boshqaruv tizimi, milliy yashil taksonomiya, ESG standartlari, MRV va milliy shaffoflik tizimi institutsional asosni yaratadi. Uchinchi bosqichda iqtisodiy vositalar moliyaviy va bozor rag'batlarini shakllantiradi. To'rtinchi bosqichda ushbu rag'batlar qayta tiklanuvchi energiya, suv tejash, yashil qurilish, chiqindilarni qayta ishlash, kam uglrodli sanoat va yashil infratuzilma loyihalariga yo'naltiriladi. Ayniqsa, chiqindilarni qayta ishlash yo'nalishida institutsional boshqaruv, davlat-xususiy sheriklik va iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarining uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi (O'tbosarov, 2026). Yakuniy bosqichda esa resurs tejamkor o'sish, energiya xavfsizligi, investitsion jozibadorlik, ekologik barqarorlik va past uglrodli rivojlanish shakllanadi.

Umuman olganda, natijalar O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning institutsional va iqtisodiy asoslari shakllanganini ko'rsatadi. Biroq ushbu mexanizmlarning samaradorligi ularning alohida-alohida mavjudligiga emas, balki o'zaro bog'langan holda ishlashiga bog'liqdir. Taksonomiya yashil loyihalarni aniqlaydi, ESG standartlari korporativ shaffoflikni kuchaytiradi, MRV va milliy shaffoflik tizimi natijalarni o'lchash va verifikatsiya qilish imkonini beradi, yashil moliyalashtirish kapital oqimini ta'minlaydi, iqtisodiy rag'batlantirish vositalari esa korxonalar va investorlarni yashil faoliyatga jalb qiladi. Shu sababli, asosiy shart strategik, institutsional, moliyaviy, bozor va monitoring mexanizmlarini yagona tizimga birlashtirishdan iboratdir.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish mexanizmlari alohida hujjatlar yoki tarqoq chora-tadbirlar darajasidan yaxlit institutsional-iqtisodiy tizim darajasiga o'tmoqda. Bu tizimda strategik maqsadlar, boshqaruv mexanizmlari, yashil taksonomiya, ESG standartlari, MRV tizimi, yashil moliyalashtirish va iqtisodiy rag'batlantirish vositalari o'zaro bog'liq holda shakllanmoqda. Biroq mexanizmlarning mavjudligi ularning avtomatik samarali ishlashini anglatmaydi. Real natija ushbu bo'g'inlar o'rtasidagi uzviylik, muvofiqlashtirish darajasi, moliyalashtirish imkoniyatlari va monitoring tizimining ishonchligiga bog'liqdir.

O'zbekiston tajribasida muhim jihat shundan iboratki, yashil iqtisodiyotga o'tish siyosati faqat umumiy konseptual darajada qolib ketmagan. PQ-4477-son qaror uzoq muddatli strategik asosni, PQ-436-son qaror maqsadli ko'rsatkichlar va amaliy yo'nalishlarni, VMQ-514-son qaror boshqaruv tizimini, VMQ-561-son qaror milliy yashil taksonomiyani, VMQ-800-son qaror milliy shaffoflik tizimi va MRV mexanizmlarini, PF-16-son Farmon esa yashil moliyalashtirish, ESG hisobotlari, yashil tariflar va "yashil tadbirkor" maqomi kabi amaliy iqtisodiy vositalarni mustahkamlamoqda. Bu holat yashil iqtisodiy o'sish uchun zarur bo'lgan strategik, huquqiy va tashkiliy asoslar shakllanganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, asosiy masala mazkur mexanizmlarning o'zaro bog'liq ishlashidir. Masalan, yashil kreditlar va yashil obligatsiyalar milliy yashil taksonomiya bilan bog'langan holdagina samarali bo'ladi. Agar loyiha yoki faoliyat turi yashil mezonlarga mosligi aniq tasniflanmasa, moliyaviy resurslar ekologik samarasi



yetarli bo'lmagan loyihalarga yo'naltirilishi mumkin. Shu sababli yashil moliyalashtirishning samaradorligi taksonomiya, loyiha baholash mezonlari, tashqi sertifikatlash, monitoring va hisobot tizimlarining sifatiga bevosita bog'liqdir.

ESG standartlari ham yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular korxonalar faoliyatida ekologik, ijtimoiy va boshqaruv mezonlarini birlashtiradi hamda investorlar, banklar va xalqaro moliya institutlari uchun axborot shaffofligini oshiradi. Biroq ESG standartlarini joriy etish faqat hisobot tayyorlash bilan cheklanmasligi kerak. U korxonaning energiya sarfi, emissiya hajmi, risklarni boshqarish tizimi va investitsion strategiyasiga real ta'sir ko'rsatishi lozim.

Milliy shaffoflik tizimi va MRV mexanizmlari ushbu jarayonda ishonch infratuzilmasi vazifasini bajaradi. Yashil iqtisodiy o'sish natijalarini baholashda qabul qilingan qarorlar yoki ajratilgan mablag'lar emas, balki real natijalar – emissiya kamayishi, energiya samaradorligi oshishi, suv sarfi qisqarishi, yashil investitsiyalar hajmi va ekologik loyihalarning samaradorligi muhim ahamiyatga ega. Aynan MRV tizimi davlat, investor, korxonalar va jamiyat o'rtasida ishonchli axborot almashinuvini ta'minlaydi.

Yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda iqtisodiy vositalar turlicha vazifa bajaradi. Yashil kreditlar va grantlar dastlabki xarajatlarni kamaytiradi; yashil obligatsiyalar uzoq muddatli loyihalarga kapital jalb qiladi; yashil tariflar qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarishni manfaatli qiladi; uglerod bozori emissiyalarni kamaytirishni iqtisodiy qiymatga aylantiradi; "yashil tadbirkor" maqomi esa tadbirkorlik subyektlariga reputatsiya va bozor afzalliklarini beradi. Yashil innovatsiyalarni moliyalashtirish bo'yicha tadqiqotlarda ham moliyaviy vositalar ekologik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish va past uglerodli rivojlanishga o'tishni jadallashtiruvchi muhim omil sifatida baholanadi (Turanov, 2026). Ularning real samarasi taksonomiya, ESG, MRV, moliyalashtirish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari bilan bog'langan holda yuzaga chiqadi.

Mavjud mexanizmlarning muhim cheklovi shundaki, yashil moliyalashtirish bozori, yashil obligatsiyalar amaliyoti, ESG hisobotlari, uglerod bozori, yashil tariflar va "yashil tadbirkor" maqomi hali shakllanish bosqichidadir. Ularning keng qamrovli tizimga aylanishi uchun institutsional tajriba, ochiq ma'lumotlar bazasi, mustaqil verifikatsiya va tarmoqlar kesimidagi ekologik ko'rsatkichlar zarur. Shuningdek, energetika, sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi, transport va moliya sektorida yashil mexanizmlar bir xil shaklda ishlamaydi, shuning uchun umumiy model tarmoq xususiyatlariga moslashtirilishi lozim.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning keyingi bosqichi mexanizmlarni alohida joriy etishdan ularni yagona amaliy zanjirga bog'lashga o'tishi kerak. Bunday zanjirda strategik hujjatlar maqsadlarni belgilaydi, taksonomiya yashil loyihalarni aniqlaydi, ESG standartlari korporativ shaffoflikni kuchaytiradi, MRV tizimi natijalarni o'lchaydi, yashil moliyalashtirish kapital oqimini ta'minlaydi, iqtisodiy rag'batlar esa korxonalar va investorlarni yashil faoliyatga yo'naltiradi. Ushbu zanjir uzluksiz ishlagandagina yashil iqtisodiy o'sish barqaror, o'lchanadigan va investitsion jihatdan jozibador rivojlanish modeliga aylanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning institutsional va iqtisodiy mexanizmlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiy o'sish faqat ekologik maqsadlar yoki alohida investitsiya loyihalari bilan cheklanmaydi. U strategik hujjatlar, normativ-huquqiy asoslar, davlat boshqaruvi mexanizmlari, milliy yashil taksonomiya, ESG standartlari, MRV tizimi, yashil moliyalashtirish va iqtisodiy rag'batlantirish vositalarining o'zaro bog'langan tizimi orqali shakllanadi.

O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o'tishning strategik va institutsional asoslari bosqichma-bosqich shakllangan. Strategik hujjatlar yashil o'sishning uzoq muddatli yo'nalishlarini belgilagan bo'lsa, boshqaruv tizimi, milliy yashil taksonomiya, milliy shaffoflik tizimi, ESG hisobotlari, yashil moliyalashtirish va iqtisodiy rag'batlantirish vositalari ushbu siyosatni amaliy mexanizmlar darajasiga olib chiqmoqda. Bu holat yashil iqtisodiy o'sishni faqat ekologik tadbirlar majmui sifatida emas, balki institutsional boshqaruv va iqtisodiy manfaatlar tizimi sifatida talqin qilish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning asosiy ilmiy xulosasi shundan iboratki, yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish mexanizmlari alohida moliyaviy, huquqiy yoki tashkiliy choralar yig'indisi sifatida emas, balki yaxlit institutsional-iqtisodiy tizim sifatida talqin qilinishi lozim. Ushbu tizimda strategik hujjatlar umumiy yo'nalishni belgilaydi, institutsional mexanizmlar boshqaruv va muvofiqlashtirishni ta'minlaydi, milliy yashil taksonomiya loyihalarni tasniflaydi, ESG standartlari korporativ shaffoflikni kuchaytiradi, MRV va milliy shaffoflik tizimi natijalarni o'lchash hamda verifikatsiya qilish imkonini beradi, iqtisodiy vositalar esa iqtisodiy subyektlarni yashil faoliyatga rag'batlantiradi.

Maqolaning ilmiy yangiligi O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning institutsional-iqtisodiy modelini asoslashdan iborat. Ushbu modelda strategik asos, institutsional mexanizmlar, iqtisodiy vositalar, yashil loyihalar va barqaror iqtisodiy natijalar yagona zanjir sifatida talqin qilindi. Bu yondashuv yashil

iqtisodiyot siyosatini iqtisodiy modernizatsiya, investitsion faollik, resurs samaradorligi, korporativ shaffoflik va past uglerodli rivojlanishni birlashtiruvchi tizimli mexanizm sifatida tushunishga imkon beradi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, unda yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish mexanizmlari hujjatlar, institutlar va iqtisodiy vositalar kesimida tizimlashtirildi. Ayniqsa, milliy yashil taksonomiya, ESG hisobotlari, MRV tizimi va yashil moliyalashtirish o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytirish yashil loyihalarga bo'lgan ishonchni oshiradi va kapital oqimini ekologik samarali yo'nalishlarga buradi.

Tadqiqotning cheklovi shundaki, unda yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish mexanizmlarining makroiqtisodiy natijalarga miqdoriy ta'siri ekonometrik model orqali baholanmadi. Buning asosiy sababi yashil moliyalashtirish, ESG hisobotlari, emissiyalar qisqarishi, uglerod birliklari va tarmoqlar kesimidagi ekologik samaradorlik bo'yicha uzoq muddatli solishtiriladigan statistik qatorlarning yetarli shakllanmaganligidir. Kelgusidagi tadqiqotlarda ushbu yo'nalish bo'yicha miqdoriy baholash metodikasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun zarur bo'lgan strategik, institutsional va iqtisodiy asoslar shakllanmoqda. Keyingi bosqichda asosiy vazifa ushbu mexanizmlarni yagona amaliy tizim sifatida ishlashini ta'minlashdan iborat. Taksonomiya, ESG standartlari, MRV tizimi, yashil moliyalashtirish, uglerod bozori, yashil tariflar va "yashil tadbirkor" maqomi o'zaro bog'langan holda ishlagan taqdirdagina yashil iqtisodiy o'sish resurs tejamkor, investitsion jozibador, ekologik xavfsiz va uzoq muddatli barqaror rivojlanish modeliga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. UNEP. (2011). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. United Nations Environment Programme.
2. OECD. (2011). Towards Green Growth. Paris: OECD Publishing.
3. World Bank. (2012). Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development. Washington, DC: World Bank.
4. Vaxabov, A. V., & Xajibakiyev, Sh. X. (2024). Yashil iqtisodiyot: darslik. Toshkent.
5. Turobova, H. R., & Kadirova, M. M. (2025). Yashil iqtisodiyot: o'quv qo'llanma. Buxoro: Kamolot nashriyoti.
6. Iminoxunov, A. A. (2026). O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyot rivojlanishining barqaror iqtisodiy o'sishga ta'siri: makroiqtisodiy va tarmoq ko'rsatkichlari asosida tahlil. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 5(2), 255–263.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-4477-son qarori. <https://lex.uz/docs/-4539502>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-436-son qarori. <https://lex.uz/docs/-6303230>
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-sentabrda "Yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonini boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida 514-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-3815315>
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-oktabrdagi "Milliy "yashil" iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to'g'risida" 561-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-5619825>
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida PF-16-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-7369703>
12. O'tbosarov, A. A. (2026). Rivojlangan davlatlarda chiqindilarni qayta ishlash tizimining institutsional asoslari. Muhandislik va iqtisodiyot, 5, 177–181.
13. Turanov, S. B. (2026). Yashil innovatsiyalarni moliyalashtirish va amalga oshirish iqlim o'zgarishlariga moslashishning asosiy omili sifatida: tizimli tahlil va kelgusi tadqiqot yo'nalishlari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 5, 255–261.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100